

PAXTA CHIGITINI TUKSIZLANTIRUVCHI RESURSTEJAMKOR QURULMA

Rashidova Shahribonu Shodmonbek qizi

Andijon mashinasozlik instituti, magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada paxta chigitni tuksizlantirish usullari va paxta chigitini kuydirishning an'anaviy usullardan afzalligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: paxta, chigit, texnologiya, elektrodvigatel.

KIRISH

O'zbekiston chigitli paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda oldingi besh mamlakat qatoridan o'rin egallagan.

Respublika paxta tozalash sanoati tizimida 99 ta paxta tozalash korxonalari, 511 ta chigitli paxta tayyorlov maskanlari (punktlari), 14 ta eksperimental mexanika zavodlari, 21 ta xo'jalik hisobidagi korxonalar, 48 ta paxta chigitini tuksizlantirish, sexlar ishlamoqda.[1]

So'ngi yillarda respublikamizda asosiy e'tibor ajratilayotgan maqsadli va samarali tabiiy xom ashyo boyliklaridan unumli foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarish, tabiiy foydali qazilmalardan imkon qadar oqilona foydalanish talab etiladi. Bunday muammolarni xal qilish uzluksiz ta'sir qiladi.

Hozirgi kunda paxta tozalash sanoati korxonalari uch smenada ishlab, yiliga 4,5 million tonna chigitli paxtani qayta ishlash imkoniyatiga ega Respublika bo'yicha 21 ta paxta tozalash korxonalari qayta takomillashtirilib, zamonaviy, tejamli, ixcham texnologiya bilan ta'minlangan holda qayta jihozlandi.[1-2].

Paxta tozalash korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish orqali qayta texnik jihozlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Paxtani birlamchi ishlov berish texnologik jarayonlarini muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib paxtani chiqindilardan tozalash hisoblanadi, chunki chigitli paxta sifatli tozalash bevosita olinadigan paxta tolasini sifatini ham belgilab beradi. Hozirda ishlatilayotgan chigitli paxtani tozalash mashinalarida har doim ham kerakli natijalarga erishib bo'ladi deb bo'lmaydi, chunki talab etilgan tozalash samaradorligiga erishish asosan chigitli paxtaga ko'rsatayotgan mexanik, zarbiy ta'sirlarni kuchaytirish yoki oshirish hisobiga amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida paxta tolasini va chigitini shikastlanishini turli xil nuqsonlarni

oshishiga olib kelmoqda. Paxta tozalash sanoatiga qo'yilayotgan katta vazifalarni bajarish uchun paxta tozalash korxonalariga yangi texnika va texnikalarni joriy etish talab etiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda paxta chigitini tuksizlantirish usullari uch xil ko'rinishda kelmoqda tukli, mexanik tuksizlantirilgan va kimyoviy usulda tuksizlantirilgan. Bu usullarda yetishtirilgan urug'lik paxta chigitlari ekilib kelinmoqda. Paxta chigitini tuksizlantirish uchun maxsus gaz alangasida tuksizlantiruvchi qurulma ishlab chiqildi. Paxta chigitini kuydirish uchun qurilma paxta tozalash sanoati uchun amal qiladi. Kuydirish vositasining ishlash printsipli paxta xom ashyosini ishlab chiqarishdir paxta tolasining uzilishi natijasida yigiruvchi ko'r-ko'rona barabanlar va urug'lar lint bilan ajralib turadi. Paxta o'simlik yog'ini olishda paxta chigitini sifatiga bog'liq hollar juda ko'p.

Paxta chigitidan yog'olish jarayonida chigitlar turli ko'rinishda keladi. Tukli va tuksiz ko'rinishda keladi. Biz tavsiya etadigan qurilmamizda paxta chigitini tuksizlantirib ma'lum miqdorda tukli chigit qilib tayyorlab beradi. Ushbu qurilmaga O'zbekiston respublikasi Intelektual mulk agentligining FAP 02100 raqamli patenti olingan.

ASOSIY QISM

Ushbu qurilma orqali paxta chigitini kuydirishga tayyorlash yog' olishda samaradorligi shundan iboratki paxta chigitini yog' olishdan maqsad tukli chigitlardan yog' olish bir muncha qiyinchilik tug'diradi tuklar ko'p bolganligi sababli yog'ni o'ziga shimib oladi va yog' olish unumdorligini kamaytiradi va tuksiz chigitlarda po'stloqlari sinib ketadi yog' olishda bir muncha qiyinchilik keltiradi bizning tavsiya etadigan qurilmamiz yog' olish qulayliklari shundan iboratki o'zida ma'lum bir miqdorda tuk qoladi va sinib ketmaydi u o'ziga yog'ni kop shimib olmaydi tuksiz chigitlarda yog' olish texnikasi o'zida ma'lum bir miqdorda tuk qo'shiladi yoki o'rnini bosuvchi narsalar qo'shiladi bizning tavsiya etadigan qurilmamizda yog' olishga tayyorlashda chorva mollariga xam oshiqcha chiqadigan chiqindilar shelulxa kunjaralar sifati yuqori maxsulot bo'lib chiqadi bu qurilmada chigitlarni kuydirishga tayyorlash jarayonida oshib qolgan chigitlarni bemalol yog' olish imkoniyati bor an'anaviy usulda esa oshib qolgan chigitlarni yog' olishga ishlatib bolmaydi chunki kislotada tuksizlantirilgan bo'ladi kislotada zararli bo'lgani uchun insoniyat omiliga katta xavf tug'diradi bu sog'lik uchun tog'ri kelmagani sababli oshib qolgan urug'lik chigitlari ko'mib tashlanadi yoki yo'q qilinadi.



Taklif etilayotgan yangi gaz alangasida kuydirib tuksizlantirish usuli mavjud usullarga nisbatan ish unumini (100-120 kg/soat), sifatini (95%) va urug'larni unuvchanligini (95 % gacha) yuqoriligi bilan farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Alimova H.A. va boshqalar. «Yangi texnologiyalarni tatbiq yetish va ularning natijalari». Toshkent, «TTESI», 1999.
2. Axmedov A.A. Urug'lik paxtani saqlash sifatiga e'tibor, O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali, 2002, No10.
3. Bahromov K., Xolmurodov N. va boshqalar. G'o'za navlari va ularni yetishtirish xususiyatlari. Toshkent, Mehnat-1990.